

*Alimbabayev Abrorjon Rafikovich**Farg'ona viloyati Rishton tumani**1-son Politexnikumi tarix fani o'qituvchisi***ARAB XALIFALIGI: ISLOM DUNYOSINING BARPO ETILISHI**

Annotatsiya: Islom madaniyati va O'rta Osiyo Arab xalifaligi tomonidan istilo etilgan mamlakatlarda yangi – arab sivilizatsiyasi vujudga keldi. Uning paydo bo'lishida islom dinining ahamiyati nihoyatda katta. G'arbiy Osiyoning qadimgi yuksak madaniyatli o'lkalariga kelgan arablar dastlab yunonlar, yahudiylar, suriyaliklar, forslar, sug'diylarga nisbatan qoloq edi. Ammo ushbu xalqlar madaniyatini o'zlarida singdirib, yanada yuksakroq madaniyatning vujudga kelishiga sharoit yaratdi. Ushbu maqolada Arab xalifaligining shakllanishi, kengayishi, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi va madaniy merosi haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Arab xalifaligi, Islom davlatchiligi, Roshidun xalifalari, Umaviylar, Abbosiylar, Islom oltin asri, xalifalikning kengayishi, Bayt al-Hikma, xalq qo'zg'olonlari, arab madaniyati, xalifalikning inqirozi.

Arab xalifaligi insoniyat tarixidagi eng qudratli davlatlardan biri bo'lib, Islom dunyosining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Islom dini paydo bo'lgandan so'ng, Muhammad (s.a.v) va sahobalar davrida Arabiston yarim oroli yagona diniy g'oya atrofida birlashdi. Muhammad (s.a.v) vafotidan keyin xalifalik tizimi joriy etildi va bu davlat o'z ta'sir doirasini Sharq va G'arbga kengaytirib, tarixda eng yirik imperiyalardan biriga aylandi.

Arab xalifaligining paydo bo'lishi. Arab xalifaligi Islom dini paydo bo'lishidan so'ng vujudga kelgan davlat bo'lib, uning poydevori Muhammad (s.a.v) da'vatlari asosida shakllandi. Muhammad (s.a.v) vafotidan so'ng, musulmon jamoasini boshqarish uchun xalifa lavozimi joriy etildi. Birinchi to'rt xalifa (Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali) "Roshidun xalifalari" deb atalib, ular adolatli boshqaruv va Islomni yoyish bilan mashhur bo'lishdi.

Muhammad (s.a.v.) vafotidan keyin uning yaqin safdoshi abu Bakr (632–634) xalifalikka (o'rinbosar) saylanadi. Uning boshqaruvi davrida Arabiston yarimoroli aholisi islomni to'liq qabul qildi. Keyingi xalifa Umar (634–644) islom dunyosida o'zining saxiyligi, adolatparvarligi va din masalalarida qat'iyligi bilan shuhrat qozongan. Uning davrida arablar Falastin, Suriya, Misr va Liviyani, Eronning katta qismini istilo qilgan.

Usmon xalifaligi davrida (644–656) Eron to'liq bosib olingan. Arab qo'shinlari Dog'istonni egallab, amudaryo sohillariga chiqadi. Usmon davrida Qur'on oyatlari to'planib yagona kitob holiga keltirilgan. So'nggi xalifa Ali (656–661) hukmronligi o'z raqiblari bilan to'xtovsiz urushlarda o'tadi.

Xalifalik qo'shinlari VIII asr boshlarida Shimoliy Afrikani to'liq bo'ysundiradi. Toriq ibn Said boshchiligidagi arablar qo'shini 711-yilda keyinchalik uning nomi bilan atalgan Gibraltar (Jabal at-Toriq – «Toriq tog'ri» so'zidan) bo'g'ozidan o'tib, Ispaniyani bosib oladi. Yevropagi yurishlar Bordo shahri bo'sag'alariga qadar davom etadi. Puate jangida 732-yilda franklar hukmdori Karl Martell arablarni yengib, ularning Yevropaga yurishlariga chek qo'yadi.

Sharqda arablar Kavkazorti va O'rta Osiyoni bosib olib, aholini islom diniga kiritadi. Xalifalikning sharqqa yurishlari O'rta Osiyoda Talas, Hindistonda Mo'ltonga qadar davom etadi. Natijada, VII–VIII asrning birinchi yarmida ulkan hududlarni egallagan davlat – Arab xalifaligi tashkil topadi.

Xalifalikda yer-mulk munosabatlari. Arablar istilo qilgan barcha mamlakatlardagi yerlar davlatniki deb e'lon qilinsa-da, amalda avvalgi egalari qo'lida qoladi. Suriya va Eron istilo etilgach, zodagonlar xalifaga bosib olingan yerlarni taqsimlash taklifi bilan murojaat qiladi. Lekin xalifa Umar yerni egalari qoldirishni buyuradi.

Istilo qilingan mamlakatlar hukmdorlari, janglarda halok bo'lgan amaldorlar, hokimiyat vakillari yerlari xalifalik xazinasiga o'tgan. Bunday yerlar nihoyatda katta maydonlarni tashkil etgan.

Arablar joriy etgan yer solig'i – xiroj hosilning 1/3 qismini tashkil etgan. Islomni qabul qilmagan boylardan 48, o'rtahollardan 24, kambag'al dehqon va hunarmandlardan 12 dirhamdan jizya solig'i olingan. Chorva mollari va savdodan olingan zakot 1/40 hissani tashkil etgan. Xalifalikda qullar mehnatidan ham foydalanilgan.

Arablarg qarshi xalq qo'zg'olonlari. VIII–IX asrlarda istilo qilingan mamlakatlarda qator xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tgan. Iroqning Kufa shahrida 685–687-yillarda bo'lgan qo'zg'olonda arab va forslar – shahar kambag'allari va hunarmandlar qatnashgan.

O'rta Osiyoning Janubi Marv vohasida 747-yilda boshlangan abu Muslim boshchiligidagi qo'zg'olonda aholining barcha toifalari ishtirok etadi. Qo'zg'olon Movarounnahr va Xurosonni qamrab oladi. Abu Muslim boshchiligidagi qo'zg'olon natijasida Umaviylar hukmronligi tugatilib, xalifalikda boshqaruv yangi sulola Abbosiylarga o'tadi. Arab xalifaligi 630–1258-yillarda hukm surgan. Unda Umaviylar (661–750) va Abbosiylar sulolalari (750–1258) hukmronlik qilgan.

Movarounnahr markazi Sug'diyonada 769–783-yillarda Muqanna boshchiligidagi yirik xalq qo'zg'oloni bo'lib o'tadi. Qo'zg'olonchilar uzoq yillar arab qo'shinlariga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib boradi. Ozarbayjonda 815-yilda boshlangan Bobak boshchiligidagi qo'zg'olon ham 20 yildan ortiq davom etadi. Tarixda «qizil ko'ylaklilar» nomini olgan bu qo'zg'olon qatnashchilarining shiori quyidagicha edi: «Qirq yil qul bo'lib yashagandan bir kun ozod bo'lib yashagan ma'qul!».

Xalq qo'zg'olonlari, urushlar, hokimiyat uchun kurashlar xalifalikning siyosiy inqiroziga sabab bo'ladi. Xalifalikdan ajrab chiqqan birinchi mustaqil amirlik 756-yilda Ispaniyada tashkil topadi. U X asrdan Qurdoba (Kordova) amirligi nomini oladi. IX asrdan Misr, Eron, Movarounnahr va Xuroson mustaqillikka erishadi. Abbosiylar qo'lida Yaqin Sharq va Arabiston yarimoroli qoladi xolos.

Xalifalikning bosqichlari

Roshidun xalifaligi (632–661): Islomning kengayishi va tartibli boshqaruvning shakllanishi. Fors va Vizantiya imperiyalari bilan urushlar olib borildi.

Umaviylar xalifaligi (661–750): Xalifalik poytaxti Madinadan Damashqqa ko'chirildi. Islom davlatining hududi Ispaniyadan Hind vodiysigacha kengaydi. Arablashtirish siyosati olib borildi.

Abbosiylar xalifaligi (750–1258): Poytaxt Bag'dodga ko'chirildi va ilm-fan rivojlandi. "Islom Uyg'onish davri" boshlandi. Xalifalik sekin-asta parokanda bo'lib, mahalliy amirliklar mustaqillikka erishdi.

Arab xalifaligining ijtimoiy va madaniy hayoti. Xalifalik hukmronligi davrida ilm-fan, iqtisodiyot va san'at gullab-yashnadi. Ayniqsa, Abbosiylar davrida ilm-fan va falsafa jadal rivojlandi.

Ilm-fan va ta'lim: Bayt al-Hikma (Bag'doddagi donishmandlik uyi) tashkil etildi. Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Al-Farg'oni kabi olimlar yetishib chiqdi.

Savdo va iqtisodiyot: Ipak yo'li orqali savdo aloqalari rivojlandi. Dinar va dirham tangalari xalqaro savdoda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Madaniyat va san'at: Qur'oni Karim xattotlik san'atining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Islom me'morchiligi (masjidlar, madrasalar) taraqqiy etdi.

Arab xalifaligining inqirozi va parokandaligi. Abbosiyning zaiflashuvi bilan xalifalik mayda davlatlarga bo'linib ketdi. 1258-yilda mo'g'ullar Bag'dodga bostirib kirdi va Abbosiy xalifaligini tugatdi. 1517-yilda Usmonlilar Misrni zabt etib, xalifalikni o'z qo'liga oldi.

Arab xalifaligi Islom dunyosining poydevorini yaratdi. Bu davlat nafaqat harbiy qudrati, balki ilm-fan, madaniyat va iqtisodiy yutuqlari bilan ham jahon tarixida muhim o'rin egalladi. Uning merosi bugungi musulmon olamida ham o'z aksini topmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-Tabariy, "Tarixi Tabariy" – Islom tarixi bo'yicha asosiy manbalardan biri.
2. Ibn Xaldun, "Muqaddima" – Tarix va jamiyatshunoslik bo'yicha muhim asar.
3. Xusraviy, A. "Islom sivilizatsiyasi va uning rivojlanishi" – Arab xalifaligining ilmiy va madaniy taraqqiyoti haqida.
4. Lapidus, I. "A History of Islamic Societies" – Islom jamiyatlarining tarixiy rivojlanishi haqida keng ma'lumot.
5. Bennison, A.K. "The Great Caliphs" – Xalifalik tarixi va uning siyosiy ta'siri haqida.
6. Hodgson, M.G.S. "The Venture of Islam" – Islom tarixining shakllanishi va rivojlanishi.
7. Kennedy, H. "The Prophet and the Age of the Caliphates" – Erta Islom davrining siyosiy tarixi.